Fanlar akademiyasining Navoiy bo‘limida yil sarhisobi

Yilning oxirgi oylarida an’anaviy tarzda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi rahbariyati FAning bo‘limlari va ilmiy-tadqiqot muassasalariga ularda yil davomida bajarilgan ishlar bilan tanishish uchun tashrif buyuradi. Jumladan, 2022-yilning 3-4-dekabr kunlari Fanlar akademiyasi prezidenti Bexzod Yuldashev, Akademiya vitse-prezidenti Baxtiyor Ibragimov hamda Akademiya bosh ilmiy kotibi G‘ayrat Baxadirovlar FA Navoiy bo‘limi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida Bo‘limning olimlari, xodimlari va doktorant, stajyor-tadqiqotchilari bilan uchrashib, ularning bajarilgan ilmiy ishlari bilan tanishdilar.





Navoiy bo‘limining rahbariyati, olimlari va yosh tadqiqotchilari quyidagi asosiy ma’lumotlarni taqdim etdilar. Bo‘lim tomonidan 2022-yilda:

3ta monografiya va o‘quv-uslubiy adabiyotlar, 52ta ilmiy maqola, jumladan 9ta Scopus/Web of Science bazasiga kiritilgan va 26ta yuqori impakt faktorli xalqaro jurnallarda hamda 110dan ziyod tezislar xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilgan anjuman va konferensiya to‘plamlarida nashr qilindi.

Foydali modelga 2ta patent hamda 3ta guvohnoma olindi. Bundan tashqari, ixtiroga patent olish uchun 4ta talabnoma yuborildi.





2022-yil noyabr oyida Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e’lon qilingan Milliy reyting natijalariga ko‘ra, Bo‘lim 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 70 o‘rindan 55 o‘ringa, ya’ni 15 pog‘ona ko‘tarildi.

3ta quyidagi mavzular bo‘yicha ilimiy loyiha muvaffaqiyatli bajarildi:

- neft-gaz quduqlarini burg‘ulashda import o‘rnini bosuvchi yangi polimer-kompozit mahsulotlarini ishlab chiqarish;

- mahalliy xom-ashyolar asosida metall quyish qoliplari uchun boyitilgan gil kukunini ishlab chiqish;

- Qorako‘l qo‘ylari genofondini saqlash, rangli qorako‘lchilikni rivojlantirish, ularning genomini o‘rganish hamda genodiagnostika usullarini ishlab chiqish;

“Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda bentonit gillaridan foydalangan holda sug‘orish suvlarini tejashning ilmiy asoslangan agrotexnologiyalarini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha bajarilib kelinmoqda. Dastalbki natijalar – ijobiy. Tadqiqotlar davomida o‘simliklarni bargidan oziqlantirishda mineral o‘g‘itlar bilan birgalikda bentonit gillari kukunidan tayyorlangan suspenziya bilan oziqlantirish 700-1000 m3/ga sug‘orma suvlarini tejalishiga hamda nazoratga nisbatan olingan qo‘shimcha paxta hosilini 10-18%, kuzgi bug‘doy hosilini 25-31% hamda lalmi bug‘doyda esa 159% gacha yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lishi isbotlandi.





O‘zbekiston Fanlar akademiyasi rahbariyati shu kabi bir qator qilingan ishlar sarhisobi bilan tanishib chiqdilar. Kelgusi rejalar ham muhokama qilinib, faoliyat doirasidagi ishlar yuzasidan kelishib olindi.